



## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

### Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

## HUQUQIY KOMMUNIKATSIYA TURMUSH MADANIYATINING O'ZIGA XOS KO'RINISHI SIFATIDA

*Ruxsora Elmuratova*

*O'qituvchi,*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Huquqiy, ilmiy, targ'ibot, siyosat, qonun, madaniyat, jamiyat, davlat, boshqaruv, adolat.

**Annotatsiya:** Maqolada yoritilayotgan mavzu, asosan, o'rta asrlarda davlat boshqaruvida huquqiy kommunikatsiyaning ahamiyati bo'lib, mavzu bilan bog'liq holda huquqiy kommunikatsiya haqida gapirganda quyidagilarni e'tiborga olish kerak. IX–XVI asrlarda musulmonlar yashaydigan mamlakatlarda yozilgan kitoblarda huquqiy masalalar asosan ma'naviy-ma'rifiy, ma'muriy yoki ilmiy yondashuvlar bilan bir qatorda keltirilgan, shuning uchun ko'p hollarda ularni bir-biridan ajratish qiyin. Shu bilan birga ma'lum bir huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqilgan va joriy qilingan. Jamiyatning axborotlashuv darajasi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy jihatdan shu qadar jiddiy ahamiyatga ega bo'lmoqdaki, bu nihoyatda murakkab va serqirra jarayonga daxldor muammolarni o'rganish, tadqiq qilish va tegishli xulosalar chiqarish mutaxassislardan alohida yondashuvlarni talab etadi. Xo'sh, axborot globallashuvi jadal davom etayotgan hozirgi davr mezonlari bilan o'tmishga murojaat etish mumkinmi? Deylik, yaqin va olis moziyda hukm surgan saltanatlar, davlatlarda jamiyat boshqaruvida axborot qanday o'rin tutgan? Ta'bir joiz bo'lsa, axborotlashgan jamiyatning u yoki bu unsurlari amalda qo'llanganmi? Qo'llangan bo'lsa, ular qanday mexanizmlar asosida hayotga joriy etilgan? Umuman, hozirgi tushunchamizdagi ijtimoiy kommunikatsiya tarixda qanday ko'rinishlarga ega bo'lgan?

Bugungi ijtimoiy zarurat asrimiz kishilari, jumladan, soha mutaxassislari oldiga shu singari savollarni ko'ndalang qo'ymoqda. Zero, hozirgi Markaziy Osiyo hududida hukm surgan turli katta-kichik davlatlarda jamiyatni boshqarishda o'ziga xos tajribalar to'plangani tabiiy. Qolaversa, hech bir

jamiyatni ijtimoiy kommunikatsiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Biz tadqiqot obyekti sifatida tanlab olgan davr chegarasidagi davlatlarda ham ijtimoiy kommunikatsiya mavjud edi. Bugun o'sha davrlar kommunikatsiya tartibotlarini xalqimiz ma'naviyatining bir ko'rinishi, zamonaviy axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos ildizlari sifatida o'rganish dolzarb vazifa sanaladi.

---

## LEGAL COMMUNICATION OF LIVING CULTURE AS A PERSONAL APPEARANCE

*Rukhsora Elmuratova*

*Lecturer,*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Legal, scientific, propaganda, politics, law, culture, society, state, administration, justice

**Abstract:** The topic covered in the article is mainly the importance of legal communication in public administration in the Middle Ages. In books written in Muslim countries in the 9th-16th centuries, legal issues are mainly presented along with spiritual and educational, administrative or scientific approaches, so in many cases it is difficult to separate them from each other. At the same time, certain legal documents were developed and implemented. The information level of society is so important from the socio-political, economic and spiritual points of view that studying, researching and obtaining appropriate conclusions on the problems associated with this extremely complex and complex process requires special approaches from specialists. . So, is it possible to refer to the past with the criteria of the current era, when information is rapidly globalizing? For example, what role did information play in the governance of society in the kingdoms and states that ruled in the recent and distant past? So to say, were certain elements of the information society used in practice? If so, what are the mechanisms for their implementation? What were the forms of social communication in our current understanding of history?

Today's social need asks such questions to people of our age, including industry experts. After all, it is natural that various large and small states ruling in the territory of Central Asia have accumulated a unique experience in managing society. Moreover, no society can be imagined without social communication. Social communication also existed in the countries of the border period, which we chose as the object of study. Today, it is considered an urgent task to study the communicative procedures of those times as a manifestation of the spirituality of our people, as the specific roots of the modern information society.

## ПРАВОВАЯ КОММУНИКАЦИЯ ЖИВОЙ КУЛЬТУРЫ КАК ЛИЧНОЕ ЯВЛЕНИЕ

*Рухсора Эльмуратова*

*Преподаватель,*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:**

*Правовая, научная,  
пропаганда, политика, право,  
культура, общество,  
государство, управление,  
правосудие*

**Аннотация:** Темой, затронутой в статье, является, главным образом, значение правовой коммуникации в государственном управлении в Средние века. В книгах, написанных в мусульманских странах в IX-XVI веках, правовые вопросы в основном представлены наряду с духовно-просветительскими, административными или научными подходами, поэтому во многих случаях их трудно отделить друг от друга. В то же время были разработаны и внедрены определенные правовые документы. Информационный уровень общества имеет столь серьезное значение с общественно-политической, экономической и духовной точек зрения, что изучение, исследование и получение соответствующих выводов по проблемам, связанным с этим чрезвычайно сложным и комплексным процессом, требует от специалистов особых подходов. . Итак, можно ли обращаться к прошлому с критериями нынешней эпохи, когда стремительно идет глобализация информации? Например, какую роль играла информация в управлении обществом в королевствах и государствах, правивших в недалеком и далеком прошлом? Так сказать, использовались ли на практике те или иные элементы информационного общества? Если да, то каковы механизмы их реализации? Какими были формы социальной коммуникации в нашем нынешнем понимании истории?

Сегодняшняя социальная необходимость задает такие вопросы людям нашего возраста, в том числе отраслевым экспертам. Ведь естественно, что различные большие и малые государства, правящие на территории Центральной Азии, накопили уникальный опыт управления обществом. Более того, ни одно общество невозможно представить без социальной коммуникации. Социальная коммуникация существовала и в странах пограничного периода, выбранного нами в качестве объекта исследования. Сегодня считается актуальной задачей изучение коммуникативных процедур тех времен как проявления духовности нашего народа, как специфических корней современного информационного общества.

---

**INTRODUCTION/ ВВЕДЕНИЕ/KIRISH**

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida katta ilmiy va amaliy tajribani umumlashtirgan, keng miqyosdagi axloqiy va huquqiy masalalarni o‘rtaga tashlagan. U o‘z e‘tiborini birinchi o‘rinda qonun ijrosiga qaratgan. Muallif aytishicha: “Sohibi qonun mamlakat aholisining boshqaruv silsilasidagi qonunlarga rioya qilishlarini va bo‘ysunishlarini ta‘minlay olsagina, a‘lo darajadagi davlat tuzumi bo‘lishi mumkin”<sup>1</sup>.

Qonunga rioya qilish, eng avvalo, uning borligi va undan ko‘pchilik xabardor bo‘lishiga bog‘liq, bu esa targ‘ibot-tashviqotga, ya‘ni ommaviy kommunikatsiyaga borib taqaladi. Qachonki qonunlar yaratilsa, ularga rioya qilish ta‘minlansa, keng omma o‘rtasida huquqiy madaniyat shakllanadi.

Boshqa bir joyda Forobiy bunday vaziyatlarga, ya‘ni qonun orqali jamiyatni boshqarishning afzallik va qulayliklariga, aforizm sifatida tushuntirish berib: “Yaxshi boshqaruv yaxshi qonunlarga bog‘liq, yomon boshqaruv – yomon qonunlarga, yetuk boshqaruv – yetuk qonunlarga bog‘liq”<sup>2</sup>, deb yozadi. Qonunlar mukammal ishlab chiqilgan bo‘lsa, ular targ‘ibot qilinsa, faqat o‘shandagina davlat va jamiyat hayotini yaxshi tashkil etishning iloji bo‘ladi.

Forobiy o‘z asarlarida tez-tez Aflotunga murojaat qilib turadi. Ma‘lumki, Aflotunning asarlari antik davrdan keyin yo‘qolib qolgan va faqatgina XX asrga kelib ularning bir qismi topilgan. Aflotunning asarlari yozilishi va keyincha ularning asl nusxalari tiklanishi o‘rtasida ikki ming yildan ko‘proq vaqt o‘tdi. Shu vaqt davomida Aflotunning g‘oyalari butun dunyoga yoyilgani Osiyo davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari mutafakkirlarining faoliyati orqali amalga oshirilgan.

Abu Nasr Forobiy o‘zining turli kitoblarida Aflotunning asarlarini keltiradi, izohlaydi va tushuntirib beradi, shu bilan birga uni targ‘ib qiladi. Masalan, bir joyda u shunday deb yozadi: “Aflotunning fikricha, agar shoir, bahslashuvchi yoki mutakallim (notiq) bir-biriga zid fikrlar aytsalar, u holda sohibi qonun faqat foyda keltiruvchi jihatlarini himoya qilishi zarur”<sup>3</sup>. To‘g‘ri yo‘l topish munozara yordamida amalga oshirilishi hammaga ma‘lum. Munozara esa, albatta, ommaviy kommunikatsiyadir. Shu bilan bir qatorda, bu yerda pragmatik yondashuv yetakchilik qilgan, ya‘ni turli fikrlarning foyda keltiruvchi jihatlariga e‘tibor berish zarurligi aks ettirilgan.

Jamiyatda yashaydigan odamlarning o‘zaro munosabatlari doimo murakkab bo‘lib kelgan, chunki har bir odam odatda o‘z manfaatini, o‘z huquqlarini himoya qiladi. Ma‘lumki, bunday paytda bir odamning huquqlari ikkinchi odamning huquqlari bilan chegaralanadi. Ya‘ni, huquqlar tengligi ularning chegarasi borligini anglatadi. Shuning uchun qonun-qoidalarsiz inson jamiyatda yashay olmaydi. Har kishi o‘z manfaatini himoya etgan joyda qonun barchaning manfaatini himoya qiladi va shu asnoda ma‘lum shaxslarning harakatlarini chegaralashi mumkin.

Bir fuqaroning qiziqishlari, harakatlari boshqa kishilarning huquqlariga zarar yetkazmasligi kerak. Bu borada Forobiy: “Odamlar qonunlarga murojaat etishga majburlar, shuning uchun ham ular murosaga kelganlarida qonunlarni mamnuniyat bilan kutib oladilar”<sup>4</sup>, deydi. Qonun fuqarolar huquqlarini himoya qiladi, ularning bir-biriga adolatli tarzda bo‘lishini ta‘minlaydi. Shuning evaziga jamiyat uchun kuchli qonunlar zarur.

Abu Nasr Forobiy zamonida yozilgan qonun va huquqiy me‘yorlarni bajarish ularni keng jamoatchilikka tushuntirish yordamida amalga oshiriladi. “Fozil odamlar shahri” asarida yozilishicha, qonunlarga rioya qilish, ularni ijro etib yashash muhim ahamiyatga ega, deb hisoblangan. Bu haqda Forobiy: “qonunlarni va boshqaruvni hurmat qilish hamda ularga jiddiy ehtirom bilan qarash zarurligi haqida gapiradi”<sup>5</sup>, deb Aflotunni tilga oladi. Zamonaviy ibora bilan aytganda, qonun legitim xarakterga ega bo‘lishi kerak, ya‘ni, qonunni keng jamoatchilik

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993 – B. 32–33.

<sup>2</sup> O‘sha asar. – B. 33.

<sup>3</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B. 34.

<sup>4</sup> O‘sha asar. – B. 35.

<sup>5</sup> O‘sha asar. – B. 38.

o'z ixtiyori bilan tan olib, bajarishi zarur. Teskarisi bo'lsa, qonunga nisbatan hurmatsizlik hukm sursa, u huquqiy nigilizmga aylanadi. Huquqiy nigilizm – bu jamiyatdagi qonunlarning obro'sizligi, ularga fuqarolar rioya qilmasligi. Bunday paytda parokandalik paydo bo'lishi muqarrar. Demak, qonunni hurmat qilish va bajarish – huquqiy kommunikatsiyaning, ommaviy targ'ibotning asosiy maqsadidir.

Ma'lumki, qadimgi Yunonistonda antik shakldagi demokratiya bo'lgan. U yerda quldorlik tizimi faoliyat ko'rsatib turgan holda, erkin fuqarolar ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qilganlar. Shunday qilib mashhur yunon olimi Aflotunning g'oyalari Forobiy yordami va talqinida Markaziy Osiyo bo'ylab o'rta asrlarning o'zida keng tarqalgan.

Kerak bo'lganida, inson ruhini tuzatish va yaxshilash to'g'ri yozilgan qonunni yaratish va uni keng ommaga tushuntirish yo'llari bilan amalga oshiriladi. Ushbu nuqtayi nazardan IX asrda yozilgan “Fozil odamlar shahri” asari bugun ham o'z kuchini yo'qotmagan.

Bevosita O'zbekistonga bog'liq bir jihatini keltiraylik: “Aflotun, mulkni befoyda jamg'arishdan farqli ravishda mulk egasi bo'lish yomon odat emasligini, chunki mulk halollik bilan to'planadigan bo'lsa, qashshoqlikda yashashga qaraganda badavlatlik afzal ekanligini tushuntiradi”<sup>6</sup>. Kitobda o'sha davrda jamiyatda mulkdorlar sinfi bo'lishi zarurligi aks ettirilgan. Manbada aytilishicha, mulk egasi bo'lish ijobiy hodisa. Forobiyning fikricha, xalqni mehnat qilishga o'rgatish zarur, odamlar boyisin, bundan hamma yutadi. Muallif aytadiki: “Aflotun mol-mulk orttirishning yo'llari haqida batafsil gapiradi va yunonlarga ma'lum bo'lgan usullarning qaysi biri halol, qaysilari haromligi haqida misollar keltiradi”<sup>7</sup>. Bunday huquqiy maslahatlar – bevosita ommaviy tarzda o'tkazilayotgan kommunikatsiyadir.

O'tmishdagi allomalar, ya'ni Forobiy, Narshaxiy, Marg'inoniy, Amir Temur kabi xalq uchun kurashgan kishilarning Xudoga, Payg'ambarga, ulamolarga, Aflotunga murojaat qilishlari bejiz emas. O'sha vaqtlarda ham zamondoshlar ularning yonida yashayotgan olimlarga unchalik ishonch bildirmagan. Chunki bir vaqtda yashagan odamlar yonlaridagi allomalarni qadrlamaydilar, faqat ular bu dunyodan o'tishgach, oradan ma'lum vaqt o'tganidan keyingina ularning ahamiyatiga yetib boradi. O'zining gapini mazmunli, ma'noli, ta'sirchan qilish uchun ular boshqa vahiylashtirilgan timsollarga yoki zamonaviy til bilan aytganda, xarizmalarga murojaat qilishadi.

Huquqiy jihatdan “Fozil odamlar shahri” – ixcham, qisqa va tushunarli shakldagi keng jamoatchilikka mo'ljallangan kitobdir. Forobiy asarida bugungi kunda shahar, viloyat, davlat qanday huquqiy boshqarilishi kerakligi haqidagi ilmiy tarzdagi tavsiyalarni uchratish mumkin.

Adolatli boshqaruvni joriy qilish va tushuntirish, huquqiy targ'ibot tartibi va u bilan shug'ullanadigan shaxslarga baho berish boshqa asarlarda ham uchraydi. Jumladan, “Buxoro tarixi”da shaharga qozilik qilgan kishilar haqida shunday fikr yuritiladi: “Sebavayh ibn Abdulaziz al-Buxoriy an-Nahviy shular jumlasidandir. «Men Abdulloh Muborakdan eshitdimki, – deydi Muhammad ibn A'yan, – Sebavayh Buxoroda qozilik qilganida (xalqning) ikki dirhamiga ham adolatsizlik qilmadi”; so'ng u yana: “Ikki dirham ko'plik qiladi, u tariqcha ham javr o'tkazmadi”, – deydi.

Yana Muhammad ibn Umar ham yillar davomida, toki shohid bo'lguniga qadar qozilik qildi. Abu Daym Hozim Sadiusiy (ham qozi bo'ldi) va unga xalifadan qozilik farmoni keldi. G'anjor deb mashhur bo'lgan rahmatli Iso ibn Muso at-Taymiyga qozilikni bergan edilar, u qabul qilmadi»<sup>8</sup>. Bundan ko'rinadiki, o'rta asrlarda o'ziga xos an'ana bo'lgan – xalifadan qozilik lavozimini berishga farmon kelishi zarur edi, bu lavozim shu qadar muhim va ahamiyatli edi. Hamma ham qozilik qilishga rozilik bermagan, bu kasb mas'uliyatli, qiyin ekanligini ko'pchilik bilgan. Bu yerda halollik, bilim va aql zarurligini da'vogarlar tushungan hamda uddalay olmasligiga ko'zi yetgan, natijada o'ziga yetarli darajada ishonmagan odamlar qozilikni rad etishgan.

<sup>6</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B. 38.

<sup>7</sup> O'sha asar.

<sup>8</sup> Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.: «Kamalak», 1991. – B. 89.



Quyida Narshaxiy qozilik haqida yana bir misol keltiradi: "...Sa'id ibn Xalaf al-Balxiyni ikki yuz o'n uchinchi yil jumod al-avval oyining oxirida (16-avgust 828) qozilikka tayinladilar. Bu kishi qozilikni shunday olib bordiki, xudoyi taoloning yaratgan bandalariga adolat, insof va shafqat qilish borasida uni misol qilib ko'rsatar edilar. U yaxshi qonun-qoidalar o'rnatdi"<sup>9</sup>. Albatta, huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishning o'zi yetarli emas edi. Shu bilan bir qatorda ularni keng ommaga yetkazish zarur bo'lgan. Buni esa ko'proq huquqiy yo'nalishdagi ommaviy aloqalar yordamida amalga oshirilardi.

Ushbu misolda mutafakkirlar huquqiy kommunikatsiyani ijro etuvchilar haqida fikrlar bildirilganligi ko'rinmoqda. Nafaqat qonunlar mavjudligi, balki ularning mazmuni va ahamiyatini tushunish, ushbu ma'lumotlarni hammaga yetkazish ham muhim masala bo'lgan.

Qonun birinchi o'rinda jismoniy kuch ishlatishga asoslanmasligi kerak. Qonunchilik tizimining yetakchi vazifasi – huquqiy me'yorlarni xalqqa tushuntirishdir, ya'ni, samarali ommaviy huquqiy kommunikatsiyani amalga oshirishdir. Qonun, eng avvalo, ma'naviy, tarbiyaviy, axloqiy kuchga ega bo'lishi zarur. Agar qonun faqat xalqni bo'g'ishga, bo'ysundirishga, ezishga yo'naltirilsa, bunday qonunlarning umri juda qisqa bo'ladi.

O'rta asrlarda yashagan mutafakkirlar jamiyatning tabaqalanishiga e'tibor qaratganlar. Ikki kishining unvoni bir xil bo'lsa, ularning o'rtasida farq qolmaydi, deb yozadi Nizomulmuluk "Siyosatnoma"da. "Mamlakatda qozi va xizmatkor unvonining bir xilligi ravo emasdir. Amirilar va ulug' kishilarning unvonlari Xisom ud-din (dinning qilichi), Sayf ud-davla (davlatning qilichi), Amin ud-davla (davlatning amini), Shams ud-davla (davlatning quyoshi)"<sup>10</sup> va shunga o'xshagan nomlar bilan atalgan. Ma'lumki, nomlar shaxsni tavsiflash, uning xususiyatlarini ommaga yetkazish uchun asosiy usuldur. "Qilich" so'zini tilga olish o'sha davrning an'analari bilan shartlanadi. Qolaversa, "qilich" deganda faqat shamshir nazarda tutilmagan, o'sha davrlarda yashagan odamlarning tilida bevosita va bilvosita ma'nolar qo'shilib ishlatilgan.

Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asarida ham ushbu mamlakatning huquqiy me'yorlari haqida bir qator tushuntirishlar bor. Masalan, kitobning ikkinchi jildida qishloq xo'jaligiga oid huquqiy tartiblanish izohlangan: «Dehqonchilik va chorvachilikdan keladigan daromadlarni va yer hamda o'tloq solig'ini boshlab voliyga berish lozimdir. (Mahsulotning) oltidan biri fuqaroning o'zini, molini va oilasini saqlab kelayotganligi uchun xizmat haqi hisobida voliyga beriladi. Shu xildagi soliqni berish hamma fuqarolarga lozim bo'lsa ham, ular olgan mahsulotlari haqida yolg'on so'zlaydilar va xiyonat qiladilar. Savdo ishidagilarga ham shunga o'xshash o'zlariga belgilangan miqdorda soliq to'lash lozim bo'ladi. Bu aytilgan soliqlardan brahmanlarga ozod qilinib, boshqalar ozod qilinmaydi.

Kasbdan hosil bo'lgan mahsulotning, tegishli soliqlarini to'lagandan keyin, qoldig'idan ba'zilar to'qqizdan birini sadaqa uchun berishni loyiq ko'radilar»<sup>11</sup>.

O'sha davrlarda Hindistonda qasam yoki jazo turlari qanday ekanligini Abu Rayhon Beruniy ilmiy tarzda sharhlab bergan va bunday qoidalar ma'lum darajada Markaziy Osiyo xalqlarining huquqiy amaliyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan: "Da'voning miqdoriga qarab qasamning ham turlari ko'pdir. Avvalo, javobgar qasamga rozi bo'lib, da'vo ham oz narsa uchun bo'lsa, javobgar shunday degan: «Mening oldimda brahman olimlaridan besh kishi bor, agar so'zim yolg'on bo'lsa, menga da'vo qilingan narsaning sakkiz hissasi barobarida qilgan amallarimning savobi da'vo qiluvchiga bo'lsin". Bundan ustunroq qasam shu: tonuvchiga qozi vaysha degan zaharning brahmana deb tanilgan xilini ichishga buyuradi. Bu eng yomon xilidir. Agar rost bo'lsa, vayshani ichish zarar bermaydi.

Yana ham ustunroq qasam: javobgarni chuqur, tez oqar daryoga yoki tagi chuqur, suvi to'la quduqqa olib kelinadi, javobgar, suvga qarab turib: "Sen maloyikalarning pokizasisan, oshkora va maxfiy ishlarni biluvchisan, agar yolg'onchi bo'lsam, meni o'ldirgin, agar to'g'ri bo'lsam, meni saqlagin", deydi. So'ngra uni besh kishi o'rab olib keltirib daryoga tashlaydi.

<sup>9</sup> Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.: «Kamalak», 1991. – B. 89.

<sup>10</sup> Abu Ali Nizomulmuluk. Siyosatnoma. – T.: "Yangi asr avlodi", 2008. – B. 138.

<sup>11</sup> Abu Rayhon Beruniy. Hindiston // Tanlangan asarlar. T. 2. – T.: "Fan", 1965. – B. 406.

Agar rostgo'y bo'lsa, daryodagi yoki quduqdagi suvga g'arq bo'lmas va o'lmas (emish)"<sup>12</sup>. Albatta, zahar ichish yoki daryoga tashlash to'g'ri huquqiy qaror emas, bular diniy notenglik ta'sirida qabul qilingan me'yorlardir. Ammo ularning noto'g'riligini anglashning o'zi boshqa xalqlar uchun saboq edi.

Asarda hukm chiqarish tartibi tilga olingan. Abu Rayhon Beruniy shunday deb yozadi: "Qozi da'vogarning da'vosini eshitish uchun uning xatini (arizasini) va da'voni isbot qiladigan hujjatlarni talab qiladi. Lekin xat shu barobardagi kishilarning da'vosida yoziladigandek mantiqli bo'lishi kerak. Agar xat va hujjat bo'lmasa, guvohlarni chaqiradi. Guvohlar soni eng kamida to'rt va undan ortiq bo'lishi mumkin. Agar guvohning rost gapirayotgani qozining oldida muqarrar bo'lsa, bir kishi bilan ish ko'rib, hukm chiqaradi. Shunda ham maxfiy tekshirish va oshkora alomatlarni izlash va ma'lum bo'lgan hodisalarni bir-biriga solishtirib, haqiqatni topish uchun har xil choralarni ko'rishni tark qilmaydi"<sup>13</sup>.

Amir Temur harbiylar va fuqarolar uchun alohida qozi tayinlagani hozirgi kunda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U "Temur tuzuklari" asarida shunday deydi: "Lashkar uchun maxsus qozi va raiyat uchun alohida qozi tayinladim; har mamlakatga shayxulislom yubordimki, toki musulmonlarni gunoh ishlardan qaytarib, ularni yaxshi va savob ishlarga undasin"<sup>14</sup>. Bugun nafaqat O'zbekistonda, balki ko'plab boshqa mamlakatlarda harbiy va fuqarolik sudi alohida faoliyat yuritadi.

Amir Temur o'zidan oldingi qonun-qoidalarni, huquqiy nazariya va amaliyotni o'rganib, qonunlar chiqargan. U o'z tuzuklarining bir joyida shunday deydi: "...Sulton aytdi: «Muhammad avlodidan birinchisi – hazrati Ali, so'nggisi – imom Muhammad Mahdiy oxirzamondir. Shunday bo'lgach, Payg'ambarimiz avlodining izni va ruxsatisiz uning mulkini o'z tasarrufimizga kiritmasligimiz zarur, aks holda bosqinchilik qilgan bo'lamiz"<sup>15</sup>. Ko'rinadiki, Amir Temur urushdan tashqari holatda boshqalarning mulkiga egalik qilmagan, bunday harakatdan bosh tortgan. Shu bilan birga Amir Temur huquqiy tartibotni bosqichma-bosqich amalga oshirgan va birinchi o'ringa o'z huquqiy tizimini kuchaytirish uchun eng kuchli vosita bo'lmish diniy tartibotni qo'llagan. Bu haqda "Tuzuklar"da shunday deyiladi: "Din-u shariat ishlari tuzukini tartibga keltirganimdan keyin, saltanatim korxonasining tuzukini tuzishga kirishdim. Qonun va qoidalarga (to'ra va tuzukka) tayanib, saltanatim martaba-yu e'tiborini saqladim"<sup>16</sup>. Bunday yondashuv ancha samarali ekanligini asrlar tasdiqladi.

Amir Temur ko'p hollarda oxirgi hukmni o'z zimmasida qoldirgan: "Agar kimda-kim tish sindirsa, ko'zini ko'r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino ishlar qilsa, devondagi shariat qozisi yoki ajrim chiqaruvchi qoziga olib borib topshirsinlar. Shariatga oid ishlarni hal etishda islom qozisi hukm chiqarsin. Urf-odat ishlarini esa ajrim qozisi taftish qilib, so'ng mening arzinga yetkazsin"<sup>17</sup>. Bunday amaliyot kitob, e'lon, xat va boshqa yo'llar bilan yozma yoki og'zaki shakllarda ko'pchilikka yetkazilgan. Huquqiy qaror nazoratini esa, kerak bo'lganda, Sohibqironning o'zi amalga oshirgan.

O'sha davrlarda ijod qilgan Markaziy Osiyo mutafakkirlari xorijiy huquqiy me'yorlarga ko'p e'tibor berganlar va ularni o'z yurtlarida targ'ibot qilganlar. Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" kitobidan misollar keltirdik. Endi Abdurazzoq Samarqandiyning asariga murojaat etaylik.

Yurisprudensiyada aybsizlik prezumpsiyasi, degan tushuncha bor. Uning ma'nosi shundan iboratki, toki biror odamning aybi sud tomonidan tasdiqlanmasa, uni aybdor deyish mumkin emas.

<sup>12</sup> O'sha asar. – B. 412–413.

<sup>13</sup> O'sha asar. – B. 412.

<sup>14</sup> Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: G'afur .G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyati, 1996. – B. 73.

<sup>15</sup> Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: G'afur .G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyati, 1996. – B. 79.

<sup>16</sup> O'sha asar. – B. 80.

<sup>17</sup> O'sha asar. – B. 94.

Bunday huquqiy me'yor o'rta asrlarda Xitoyda rivojlangan, bu haqda Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlayi sa'dayn va majmayi bahrayn" asarida misol keltirilgan: "Xitoyliklar gunohkorlarga nisbatan juda zo'r ehtiyotkorlik ko'rsatadilar. Chunonchi, podshohning o'n ikkita devoni bor; agar biror kishi biror gunoh bilan ayblansa va gunoh o'n bir devonda tasdiqlansa-yu, o'n ikkinchisida muqarrar qilinmasa, u kishida hali xalos bo'lishga umid bor. Agar gunohkorning ishi yuzasidan olti oylik va undan ziyoda yo'ldagi biror kishiga hojat tushgudek bo'lsa ham, toki tekshirib bilinmaguncha, gunohkorni o'ldirmaydilar; uni hibsdan saqlaydilar"<sup>18</sup>. Tabiiyki, boshqa mamlakatlar tajribasi bilan tanishish ommaviy huquqiy kommunikatsiya yordamida amalga oshirilgan.

Huquqiy qoidalar kundalik hayotda uchrab turadigan diniy, maishiy va boshqa me'yorlar bilan chambarchas bog'liqdir. O'rta asrlardagi davr haqida Amir Temurning harbiy asiri bo'lgan nemis Iogann Shitlberger o'zining "Sayoxatnoma" nomli asarida yozganidek: "Agar kimdir juma namozi payti masjidga bormasa, u kim bo'lishidan qat'i nazar, uni narvonga bog'lab ko'chalarda olib yuradilar va keyin badanini yalang'ochlab yigirma besh darra uradilar"<sup>19</sup>. Bu yerda muallif bor haqiqatni, ko'zi bilan ko'rgan voqealarni aks ettirgan, Sohibqironning davlat boshqaruvidagi o'ziga xos uslubini qog'ozga tushirgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'rta asrlarda bitilgan kitoblar sinkretik tabiatga ega bo'lib, ma'muriy va huquqiy, ma'naviy va ma'rifiy, ilmiy va tarbiyaviy yo'nalishlarni o'zida mujassamlagan. Islom diniga mansub xalqlar yashaydigan juda katta hududda samarali huquqiy me'yorlarni joriylash Qur'oni karimdan boshlangan, Markaziy Osiyo mutafakkirlari mazkur jarayonga salmoqli hissa qo'shganlar.

Islom dini, ma'rifatli din bo'lganligi sababli, unga e'tiqod qiluvchi xalqlarni jaholatdan qutqardi. Islom dinining huquqiy bag'rikengligi shunga olib bordiki, uning huquqiy me'yorlari antik davrlarda Arastu kabi olimlar barpo etgan huquqiy me'yorlar bilan uzviy, vobasta tarzda bog'lanib, yaxlit bir huquqiy tizimni tashkil etdi.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan yaratilgan asarlar insoniyat tarixida alohida o'rin tutadi. Boshqa sohalardagi ilmiy va ma'rifiy yuksalish kabi, huquqiy targ'ibotda ular orqali o'sha davrlarda katta natijalarga erishilgan. Mazkur natijalar turli yo'nalishlardagi asarlarda o'z aksini topgan. Shunday qilib, bugungi kunda dunyoda va O'zbekistonda joriylangan huquqiy tizim uzoq asrlar davomida shakllangan.

<sup>18</sup> Abdurazzoq Samarqandiy. Matlayi Sa'dayn va Majmayi bahrayn. – T.: "Fan", 1969. – B. 317.

<sup>19</sup> Шитлбергер Иоганн. Путешествие. – Т.: "Sharq", 2000. – B. 81.